

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI  
VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MUSIQA KAFEDRASI**

**4-kurs talabasi Turdimova Faridaning**

**5111100-Musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr  
darajasini olish uchun yozgan**

**“Oltinchi sinflarda "Mumtoz musiqa haqida tushuncha"  
mavzusini o‘tish uslubi” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Toshmurodov B.U.**

**Navoiy – 2015**

Mavzu: **Oltinchi sinflarda “Mumtoz musiqa haqida tushuncha” mavzusini o`tish uslubiyoti**

## **MUNDARIJA**

**Kirish.....**

### **I-BOB.**

- 1.1. Mumtoz musiqa haqida tushuncha mumtoz musiqa**
- 1.2. Farg’ona - Toshkent vohasining mumtoz musiqasi**
- 1.3. Xorazm vohasining mumtoz musiqasi**
- 1.4. Surxondaryo va Qashqadaryo mumtoz musiqasi**
- 1.5. Shashmaqom**

### **II-Bob. MUSIQA DARSLARIDA OG‘ZAKI AN‘ANADAGI KASBIY MUSIQA NAMUNALARI BILAN TANISHISH USULLARI**

- 2.1 OLTINCHI SINFDAGI MUSIQA O‘QITISHNI MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI**
- 2.2. Dars mazmuniga kiritilgan an‘anaviy kasbiy musiqa janrlarini o‘rganish va o‘zlashtirish**
- 2.3. Xalq musiqasini o‘rgatish uslublari**
- 2.4. Musiqa darslarida maqom ashulalarini o‘rganish usullari**

**Xulosa.....**

**Foydalanilgan adabiyotlar.....**

**Ilovalar.....**

## KIRISH

Musiqqa san'ati asrlar davomida xalqimiz ma'naviy olamining ajralmas qismi sifatida e'zozlanib kelinadi. Donishmand xalqimizda *“Musiqaga oshno kishidan yomonlik chiqmaydi”*, - degan qarashlar mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak Markaziy Osiyo xalqlarida uyning to'riga musiqqa asbobini osib qo'yish yoki oila a'zolaridan biror kishi biror bir musiqqa asbobida kuy chalish yohud ashula aytishi zarurligi xalqimizning ziyoli oilalariga qo'yilgan minimal talablaridan biri bo'lgan. Tarixga murojaat qilaylik buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy kabi alloma va ma'rifatparvarlarimizning ko'pchiligi dutor yoki tanbur chalishda alohida mahorat egalari bo'lishganlar. Mana shu misollarning o'ziyoq bizning qanday tafakkur sohibi, qay darajadagi dunyoqarash egasi ekanligimizni ko'rsatib turadi.

Estetik tarbiya – umumtarbiyaning tarkibiy qismi sifatida shaxsning estetik qarashlari va didlarini sobitqadamlik bilan shakllantirishda hayot hodisalari va san'at asarlarini estetik qabul qilish, shuningdek. San'at sohasida mustaqil ijod qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqqa kishilarning his tuyg'ulariga ta'sir etishdan tashqari nafas olish, qon aylanishi, yurak urushi, mushaklar harakatida va bosh miya biotoklarining o'zgarishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlab berilgan. Masalan, mohir sozanda respublikada xizmat ko'rsatgan artist Turg'un

Alimatov tanbur va satoda ijro etgan “CHo’li Iroq”, “Munojot”, “Tanovor” kabi kuylar kishini chuqur o’yga toldiradi, uzoq o’tmishni, hayot kechinmalarini eslashga undaydi. Sozanda Tohir rajabovning qashqar rubobida ijro etgan sho’x va dilrabo kuylari esatiglovchiga zavq-shavq baxsh etadi, uning chehrasini ochadi, kayfiyatini ko’taradi.

***Mavzuning dolzarbligi:*** O’quvchilarni mumtoz musiqani o’qitishdan asosiy maqsad o’quvchilarni an’analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalaridan barhamand etish hamda shu asosda ularda o’tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg’ularni shakllantirishdan iborat. Ayni vaqtda, ko’p asrlar davomida yashab kelgan avlod – ajdodlarimiz ma’naviyatining, barkamol rihiyatining sadolardagi in’ikosi bo’lgan milliy kuy, qo’shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o’rin olarkan, ularni o’z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr – muruvvatli bo’lishiga, azaliy qadriyatlarimiz va o’ziga xos betakror an’alarimizni e’zozlashga, ona yurt merosining bugungi kundagi haqqoniy vorislari bo’lishga, demakki, istiqloliyat zaruratini teran his etishga da’vat etadi.

***Bitiruv ishining maqsadi:*** Xalq qo’shiqlari vositasida 1-7 sinf o’quvchilarini tarbiyalashni ilmiy- pedagogik jihatdan tadbqiq qilish, uni amalga oshirishning pedagogik usullarini nazariy va amaliy jihatdan belgilab berish.

***Bitiruv ishining vazifalari quyidagilardan iborat:***

O’quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda mumtoz musiqaning imkoniyatlarini o’rganish; mumtoz musiqa vositasida o’quvchilarni

milliy ruhda tarbiyalashning mavjud holatini o'rganish; mumtoz musiqa vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha tarbiya ishlari olib borish.

### ***Tadqiqotning metodologik asoslarini*** O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tamoyillar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari, chop ettirilgan kitoblari va ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlari va falsafa taniqli psixolog, pedagog, musiqashunos va falsafa olimlarining bu mavzuda bildirgan fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan mavzu bo'yicha qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruqlar, musiqashunoslik bo'yicha to'plangan ilmiy manbalar hisoblanadi.

## **1.2. Mumtoz musiqa haqida tushuncha**

### **mumtoz musiqa**

*Mumtoz musiqa* - mohir sozanda , xonanda hamda bastakorlar ijodining eng nodir mahsuli bo'lgan maqomlar , yirik shakldagi murakkab kuy va ashulalarni o'z ichiga oladi. Amaliyotda u “mumtoz musiqa” yoki “kasbiy musiqa” – deb ham yuritiladi. Demak , mumtoz musiqa xalq ijodiyotining professional yo'nalishga xos bo'lgan eng sara musiqiy namunalardir.

Ushbu yunalishga xos bo'lgan asarlar iste'dodli bastakorlar tomonidan yaratilgan, yuksak malakaga ega bo'lgan xonanda va sozandalar tomonidan ijro etib kelingan. Ularning mazmuni murakkab va mukammaldir. Shu bois ularni ijro etish uchun katta san'atkorlik tajribasi mahorat malaka va musiqiy savod kerak bo'ladi.

Mumtoz musiqa qadimdan yoshlarga ustozlar tomonidan o'rgatilib kelingan. Buni odatda, ustoz – shogird an'anasida deb yuritiladi va u hozirgacha davom etib kelmoqda.

Mumtoz musiqa yirik shakldagi kuy va ashulalardan tarkib topgan. Ular mazmunan va shaklan jihatdan rang – barangdir. Ma'lumki, bizning diyorumiz sheva nuqtai nazaridan 4 ta katta vohaga bo'linadi. Bular :

1. Buxoro – Samarqand
2. Xorazm
3. Surxondaryo – Qashqadaryo
4. Farg'ona - Toshkent vohalaridir.

Sheva nafaqat tilda, balki musiqiy ohanglarda ham o'z aksini topadi. Musiqa madaniyati xalqlar orasidagi yaqinlikni, do'stlikni mustahkamlaydigan omil. Madaniyati buyuk bo'lgan xalqning kelajagi ham buyukdir. Ma'naviy boy bo'lgan xalqimizning mumtoz musiqa merosi beqiyos. Mumtoz musiqa xalqimizning ustoz, sozanda va bastakorlari tomonidan yaratilgan ma'naviy ozuqadir. Ular mukammalligi, serko'lamliligi, salohiyatliligi va salobatliliklari esa buyulik nishonasidir.

Shu bois har bir davr ijodkorlai o'z xalqining o'tmishi Mumtoz musiqasini ardoqlasa , unga tayansa va an'alarini davom ettirsa , kelajak uchun munosib ish qilgan bo'ladi . Har qanday zamonaviy ijod o'tmish an'alari bialn sug'orilsa “Millat”ni davomchisi bo'lishi tabiiydir.

### Mumtoz kuylar.

Mumtoz musiqa tarkibi ikki xil shaklga ega bo'ladi . Ulardan biri cholg'ú musiqasi bo'lsa , ikkinchisi ashula yo'lidir. Cholgú musiqasi tarkibi eng sodda xalq kuylaridan tarkib tortib to murakkab maqom namunalarigacha bo'lgan asarlarni o'z ichiga oladi . Shularning orasida maqom cholg'u yo'llari bilan birga juda ko'p an'naviy mumtoz asarlar ham bor . Mumtoz kuylarni o'zbek bastakorlari turli davrlarda yaratganlar.

Mumtoz kuylar azaldan o'zbek xalq cholg'ulari – tanbur , dutor , g'ijjak , nay , chang va surnay kabi sozlarda ijro etilib kelingan . Eng ommabop cholg'ularimizdan yana biri doiradir . Amaliyotda aksariyat mumtoz kuylar yakka cholg'ularda hamda jo'rnavozlikda ijro etilib kelinmoqda .

Xalqimiz sevib tinglaydigan mumtoz kuylarimiz juda ko'p . Ularga “Hojiniyoz – I – II ” , “Cho'li iroq” , “Mirzadavlat ” , “Munojot” , “Ufori Munojot” , “Savti Munojot ” , “Ilg'or” , “Rohat” , “Rajabiy ” , “Sharof – I –II ” , “Aliqambar ” , “Qo'shchinor ” , “Navro'zi Ajam” kabi kuylarni misol qilish mumkin . Shularga bolalarga ham xoslari “Dilxiroj” , “Jonon” , “Lazgi ” kabi kuylardir .

Mumtoz cholg'u kuylari insonlarning ma'naviy ozuqasi sifatida barchaga huzur baxsh etadi .

Xalqimiz orasida mumtoz cholg'u kuylarini yaratgan va ijro etgan juda ko'p mashhur kishilar yatishib chiqqan . Ulardan : Usta Olim Komilov , Yunus Rajabiy , To'xtasin Jalilov , Saidjon Kalonov, G'anijon Toshmatov , Faxriddin Sodiqov , Muhammadjon Mirzayev , Turg'un Alimatov , Ahmad Odilov , Abduhoshim Ismoilov , O'lmas Rasulov , Qahramon Dadaboyev va boshqalar .

### Mumtoz ashula

Ashula bu – qo'shiqqa nisbatan rivojlangan , shakli jihatdan kattaroq bo'lgan avjli asardir . Ashulaning so'z matnlari ham asosan g'azal janriga ko'proq mansub bo'ladi . Bunday xususiyatga ega bo'lgan asarlar , odatda “Mumtoz ashula” , yoki xalq ashulasi deb yuritiladi .

Mumtoz ashulalar ham xalq ichida chiqqan mohir sozanda va bastakorlar tomonidan yaratiladi . Mumtoz ashulalar o'zining salobatlilik , keng qamrovliligi va pirma'noligi bilan ajralib turadi. Ularning turlari , janrlari ham juda ko'p .

Mumtoz ashulalar xalq orasida keng ommalashgan . Ularga “Ushshoqlar” , “Fero'zlar ” , “Bayotlar” , “Suvoralar” , “Chorgohlar” ni kiritish mumkin . Xalqimizga yoqqan ashulalar tezda yoqadi va uning namunasi ham ko'payadi . Xususan , “Ushshoq” larning bir qancha turi bor . “Samarqand ushsho'i” ,



“Qo’qon ushshog’i”, “Toshkent ushshog’i”, “Sodirxon ushshog’i” va boshqalar . Bundan tashqari “Gulizorim”, “Dilxiroj”, “Ey sabo”, “Ko’cha bog’i- I – II ”, “Abdurahmonbegi”, “Aylagach”, “Fig’on”, “Sensan sevarim” , “Munojot” , “Tanovar” kabi ashulalar esa xalq orasida mashhur bo’lib ketgan .

Mumtoz ashulalar mumtoz adabiyot namoyondalari Jomiy , Navoiy , Fuzuliy , Bobur , Mashrab , Xorazmiy , Ogahiy , Nodira , Muqumiy , Furqat , Charxiy kabi shoirlarning lirik yo’nalishda yaratgan g’azal va she’rlariga bastalangan .

Mumtoz ashulalar yakka yoki jo’rnavezlikda ijro etiladi . Xonandalar esa , sozandalar ansambli jo’rligida yoki o’zlarining sozlari jo’rliklarida ham ashula aytadilar . Mumtoz ashula ijro etishda ko’proq tanbur , dutor , g’ijjak , doira , cholg’ularidan tuzilgan dastalardan foydalanadilar .

Mumtoz ashula ijrochilarni biz “hofiz” deb ataymiz . Biz ustoz xonandalardan Halima Nosirova , Saodat Qobulova , Orif Xotamov , Ochilxon Otaxonov , Hasan Rajabiy , O’lmas Saidjonov , munojot Yo’lchiyeva , Mahmud Tojibiyev , Mashrab Ermatovlarni hurmat bilan tilga olamiz .

## **1.2. Farg’ona - Toshkent vohasining mumtoz musiqasi**

O’zbekistonda har bir vohaning o’ziga xos musiqiy an’analari mavjud . FARG’ONA - TOSHKENT VOHASINING MUMTOZ MUSIQASI shu yerda yashaydigan xalqlarning

turmush tarzi , mashg'uloti va etnik hayoti asosida vujudga kelgan . Ushbu voha mumtoz musiqasiga maqom yo'nalishida yaratilgan asarlar kiradi . Bular : “Bayot – I-V” , “Gulyor – Shaxnoz I-V” , “Dugoh –Husayniy I-V ” , “Chorgoh I-V ” lar. Shu bilan birga , vohaga xos bo'lgan cholg'u turkumlari , surnay yo'llari va ayniqsa katta ashula janri alohida e'tiborga loyiqdir .

Farg'ona – Toshkent mumtoz musiqa namunalari orasida Shashmaqomga nisbatan soddaroq bo'lib , xalq ashula va qo'shiq janrlarining ta'sirida yaratilgan juda ko'p asarlar mavjud .

Bu vohaning mumtoz musiqasiga serjilolik , kuychanlik , joziba va shu bilan birga erkinlik xosdir . Shu bois erkinlik yo'llariga ega bo'lgan sozanda va xonandalar ko'p chiqqan . Jumladan , Erka qori Karimov , Mamatbuva Sattorov , Jo'raxon Sultonov , Ma'murjon Uzoqov , Usta Ro'zimat Isaboyev , Abduqodir Ismoilov , G'anijon Toshmatov , Yunus Rajabiy , Faxriddin Sodiqov , Fattohxon Mamadaliyev kabi ustoz san'atkorlar bu vohaning yorqin manyondalaridir .

### **1.3.Xorazm vohasining mumtoz musiqasi**

Xorazm eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan vohalardan biri bo'lib, o'zining madaniyati va san'ati bilan u O'rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shib kelgan .

Xorazm mumtoz musiqasi janrlarga boy . O'zining maqomlari , maqom yo'llarida yaratilgan mumtoz kuy va ashulalari , o'ziga xos doston ijrochiligi san'atlariga egadir . Xorazm maqomlari "Rost" , "Buzruk" , "Navo" , "Dugoh" , "Segoh" , "Iroq" va "Panjgoh" (to'liq bo'lmagan qism) lardan iborat . Umuman , ular "Olti yarim maqom " deb yuritiladi.

Xorazm maqomlaridan tashqari bu vohaga xos bo'lgan "Suvora" , "Naqsh" , "Faryod" kabi mumtoz kuy va ashulalar ham bor. Bular aynan Xorazm mumtoz musiqasining namunalaridir . Ularning ijro uslublari ham o'ziga xoslik mavjuddir . Ular cholg'u va ashula ijrochiligida yaqqol seziladi . XIX asrda Xorazm maqomlari "Xorazm tanbur chizig'i" asosida notaga olingan .

Xorazm mumtoz musiqasining yana bir turi – bu doston ijrochiligidir . Chunki , bu vohada dostonlar ham ashula uslubida ijro etiladi . Doston ijrochilari xalqning orasida baxshi nomi bilan yuritiladi .

Xorazm vohasi mumtoz musiqa ijrochiligiga xos cholg'ular quyidagilardir : tor , g'ijjak , qo'shnay , tanbur , dutor , sunray , va doiradir.

Xorazm mumtoz musiqasining ustozlari Madrahim Sheroziy , Hojixon Boltayev , Komiljon Otaniyozovlardir.

#### **1.4. Surxondaryo va Qashqadaryo mumtoz musiqasi**

Surxondaryo va qashqadaryo vohasi o'zining mahalliy urf – odatlari an'analari bilan alohida ajralib turadi . Ularning

mumtoz musiqasi dostonchilik bilan bog'liqdir. Doston ijrochilik an'alariga esa adabiy – nasriy va musiqiy xislar mujassamlashgan.

Doston ijrochiligining o'ziga xosligi – ularning ovoz ishlatishida va do'mbira cholg'usida jo'r bo'lishidadir. Shu bois bu voha ko'proq dostonchilik san'ati bilan mashhurdir. Doston ijrohilari xalq orasida dostonchi, baxshich, shoir deb ataladi. Dostonlarning qo'shiq qilib qytiladigan qismi esa “noma” deb aytiladi.

Bu vohada eng ko'p tarqalgan dostonlardan “Alpomish”, “Sohibqiron”, “Avazxon”, “Iskandarnoma”, “Go'ro'g'li”, “Oshiq G'arib va Shoxsanam” va boshqalar. Ular tarixiy, bahodirlik va ishqiy dostonlar hisoblanadi.

#### **1.4. Shashmaqom**

Shashmaqom - bu Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi nomlardan tashkil topadi:

- I. Buzruk – ma'nosi “katta”, “ulug'”, “buyuk”.
- II. Rost – ma'nosi “to'g'ri”, “chin”, “haqiqiy”
- III. Navo – ma'nosi “kuy”, “mungli kuy”
- IV. Dugoh – ma'nosi “ikki o'rin”, “ikki joy”, “ikki parda”
- V. Segoh – ma'nosi “uch o'rin”, “uch joy”, “uch parda”
- VI. Iroq – ma'nosi shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan edi. Bunda olti xil mukammal

parda – tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib , ularning muayyan doira usullari bilan (birikuvi) birligi asosida ijod etilgan cholg’u kuy va aytim (ashula) yo’llari alohida –alohida turkumlariga birlashtirilgan . Demak, Shashmaqom , eng avvalo , oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan . Maqom cholg’u kuy va aytim (ashula) turkunlari esa ana shu mukammal pardalarning ma’lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi .

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo’limdan – cholg’u va aytim yo’llaridan iborat bo’lib , ular ustoz –shogird an’anaviy maktabida tahsil ko’rgan malakali kasbiy cholg’uchi va ashulachi hofizlargina ijro eta oladilar .

Maqomlar asosan og’zaki an’ana tarzida , ya’ni ustozdan shogirdga “og’zaki uslub” vositasida o’tib , yashab keldi . Shunga binoan , shogirdlar va o’z ustozlari ijrosidagi maqom namunalarini xotiralariga muhrlab , amaliy ijrolar jarayonida o’rganib kelganlar va ulrni ijodiy o’zlashtirganlar . Shuni aytish kerakki , garchand sharq olimlari tomonidan o’ziga xos musiqiy “nota” yozuvi yo’llari ixtiro etilgan bo’lsada , ammo ular amaliyotda keng joriy bo’lmagan edi .

Maqomlarni besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida birnecha bor amalgam oshirildi . Xususan , taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX asrning 20 yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar – hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G’iyos Abdug’anilar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi . Shuningdek , akademik Yu.Rajabiy (1897-1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor

– 20 – yillar va 60 – 70 -yillar davomida nota yozuvlarida bosmadan chiqardi .

## **II-Bob. MUSIQA DARSLARIDA OG‘ZAKI AN‘ANADAGI KASBIY MUSIQA NAMUNALARI BILAN TANISHISH USULLARI**

a

### **2.1.OLTINCHI SINFDA MUSIQA O‘QITISHNI MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI**

Oltinchi sinfda musiqa o‘qitishning maqsad va vazifalari, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilandi. Oltinchi sinfda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni – o‘quvchilarning ma’naviy boyligining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqaviy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o‘quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, tempi, mualliflari haqida fikr yuritishga o'rgatish.

4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Oltinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni ( $Do_1$ - $Fa_2$ ) bo'ladi. Oltinchi sinfda o'quvchilarni o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-psixologik jihatdan o'quvchilarni ovozini o'zgarishi, bo'yning o'sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, yetarli darajada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. Ya'ni, dars davomida o'quvchilarni diqqat-e'tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribona munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlar o'tkazish talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini kuzatib, uni o'rganishi lozim. Chunki, o'quvchilar kattalarni munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, ular ko'proq kattalar bilan muomalada bo'lishni istaydilar. Bolalarning intizomida ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, ularning istagi va qobiliyati orasida tafovutlar sodir bo'lib turadi. Bularning hammasi o'qituvchidan yuqori malaka va tarbiyachitlikni talab etadi. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchilarni quyi sinflarda olgan bilim va malakalariga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini hayot bilan bog'lab olib borish zarur. Qo'shiq

o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlari sozlashi bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'z milliy musiqa san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarda aniq tushuncha hosil qilishi lozim. Shu asosda o'zbek musiqasining qisqa tarixi cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari, mumtoz qo'shiqlari, zamonaviy qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan: «Shashmaqom», tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirish, taqqoslash lozim.

Musiqa savodidan o'lchovlar, ladlar, ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib musiqiy asarlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Oltinchi sinfda o'quvchilarni ovoz diapazoni 1-ovozlar uchun ( $Do_1$ - $Fa_2$ ). II-ovozlar uchun ( $Si_{kich}$ - $Re_2$ ), bu davrda o'quvchilarga qo'shiqlarni ikki ovozlik qilib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu paytda, mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davridan oldin o'g'il va qiz bolalar ovozi o'rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya paytida qo'shiq o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Qo'shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ularning ovozlari asrab avaylash ishlariga yordam berishi lozim. Darsning asosiy qismini ashula aytishga sarf etib, ovozlari



charchatmaslik kerak. O'quvchilarni ikki ovozga ajratib qo'shiqlarni ikki ovozlik qilib, ularning ovozlariga moslash ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlari, asarlarni tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog'lanadi. Yangi dastur asosida yil mavzusi chorak mavzusi va dars mavzusi bir-biri bilan bog'lanadi.

## **2.2.Dars mazmuniga kiritilgan an'anaviy kasbiy musiqa janrlarini o'rganish va o'zlashtirish**

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy ma'naviyati, istiklol uchun kurashi xamda orzu umidlari in'ikos etiladi. Bu buyuk ma'naviyatimiz yosh avlodning madaniyati va milliy tafakkurini shakllantirishda benazir vositadir.

Ta'lim standarti va o'qitish kontseptsiyasida milliy musiqa namunalari. umumbashariy musiqa san'ati bilan birgalikda o'quvchilarda musiqiy estetik tarbiyani shakllantirish vositasi bo'lishi kayd etilgan.

Yosh avlodda komil inson fazilatlarini tarkib toptirishni nazarda tutib, keyingi yillarda og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlaridan namunalar tanlab, o'quvchilarni dars va sinfdan

tashqari to'garak mashgulotlarida ular bilan tanishtirishda an'anaviy usullar bilan birga yangi noan'anaviy usullardan foydalanish nazarda tutilgan. Utmishda asosan ogzaki usulda o'rganilgan, madaniy hayotda keng o'rin tutgan mumtoz musiqiy merosimiz borasida qomusiy olimlarimizdan biri Abu Nasr al-Forobiy "Kimning fe'lu atvori muvozanatini yo'kotgan bo'lsa, uni gartabga keltiradigan, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadigan va muvozanatda bo'lganlarning muvoza'iatini saqlaydigan vosita sifatida musiqa tananing sogligi uchun foydalidir", degan.

SHayx Sa'diy aytganidek, "Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir". U kishining emotsional estetik hissiyotini faol rivojlantiradi va uning axlokiy qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

1980 yilning may oyida Xiva shahrida o'tkazilgan musiqashunoslar seminarida ko'ngina o'zbek va boshqa qardosh respublikalardan kelgan musiqashunos, kompyuzitor hamda musiqa oliy o'kuv yurtlari pedagoglari ilgari "klassik", "xalq klassik", "ogzaki klassik" deb atalib kelingan maqom, mumtoz kuy va ashula, katta ashula shuningdek dostonlarga nisbatan "ch")og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa" atamasini ishlatishga qaror qildilar.

Mazkur seminarining qaroriga binoan maorif vazirligiga maktab musiqa darslari mazmunini kasbiy musiqa janrlaridan o'quvchilar yoshi, didi va imkoniyatlariga mos keladigan namunalar bilan boyitish gopshirilgan edi. 1982 yilda

pedagogika institutlarining musiqiy pedagogika fakul'tetlarida maqom asoslarini o'rganish fani dasturi Qo'shaev va R.Yu.Yunusov tomonlaridan tuzilib, nashr etildi. 1980 yillarning oxirida D.F.Omonullaev 7-sinf darsligiga SHashmaqom va uning ustozlari hakida qisqa bir mavzuni kiritdi. Shu davrdan beri musiqa o'qituvchilari tayyorlash jarayonida kasbiy musiqa janrlarini o'rganish va ularni maktab musiqa faoliyatiga jalb etish amaliyoti davom etib kelmoqda.

Dars mazmuniga kiritilgan murakkab an'anaviy kasbiy musiqa janrlarini o'rganish va o'zlashtirishning o'ziga xos usullari (metodikasi) mavjud. Bu metodika kisman eski ustozshogird an'analarga asoslangan bo'lib, unda ustozni tinglash va kuyni yodga olish, shuningdek ashula (sho''balar)dan parchalar tinglagandan keyin ularning matni (gazallar)ni o'rganishga harakat qilish nazarda tutilgan. Zamonaviy darslarga xos sinf jamoasi tarzida kuylash, kuylashdan oldin aytish mashklari aytib ovozni qizitish, ayrim asar yoki ulardan olingan parchalarni notaga karab sol'fedjio qilish, milliy bezaklarning (nola, kochirimlar) ijrosini asosan ogzaki tarzda ustozning ijrosi yoki audio va video yozuvlardan foydalanib o'rganish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish kabi usullar ayni vaktida birdaniga (paralell) amalga oshiriladi.

Maqom va boshqa an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari, kuylash organlari faoliyati, mutatsiya (balog'at) davri xususiyati va ovozni asrash hamda tarbiya qilishni ham bilish zarur. SHuning uchun baland avjlari

bo'lgan maqom sho''balari va mumtoz ashulalarni kuylashda asosan daromad va miyonxat tuzilmalarini parcha sifatida kuylab, tanishish tavsiya etilgan. Ayrim mohir pedagoglar shunday asarlardan ayrimlarini transpozitsiya kilib (pastrok tonallikga tushirib) kuylashni ham amalda qo'llamoqdalar.

Eng muhimi maqomga o'xshash murakkab va mukammal musiqa janrlarini o'ziga xos xususiyati, tarixi, ijro tamoyillarini o'quvchi yoshlarga tushuntirib, bunday asarlarga nisbatan qiziqish va ehtiyojni shakllantirishdir.

O'zbekiston Davlat madhiyasining muallifi, buyuk kompozitor Mutal Burxonov, musiqashunos professor Fayzulla Karomatov va boshqalar zo'r tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlarini o'rganish qadimdan ustoz-shogirdchilik yo'li bilan bolalikdan boshlangani, shogirdlarga dastlab tanbur, doira va boshqa sozlarda chalish, undan keyin ashula aytish o'rgatilganligi hakida gapirib, kasbiy musiqa janrlari bilan ganishish umumta'lim maktabining o'rta sinflaridan boshlanishi zarurligini qayd etgan edilar.

Maqom iborasi arabchadan joy, o'rin, daraja kabi tushunchalarni anglatib, musiqada asarningbosh pardasi joyini ko'rsatadi.

Maqomot keng ma'nodagi turli maqomlar va ularga o'xshash musiqiy janrlarning umumlashtirib aytilishidir. Bunda O'zbekiston hududidagi maqom gurkumlari (Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Fargona- Toshkent maqom

yo'llari)dan tashqari Ozarbayjon mug'omlari, Uyg'ur muqomlari, Hind ragalari, Eron dastgoxlari va boshqa turkumli asarlar nazarda tutiladi.

Buxoro shashmaqomi va respublikamizdagi boshqa maqom ko'rinishlari sobiq ittifoq davrida norasmiy tarzda kamsitilib, ular asosan saroy musiqasi, binobarin, maqomlar saroy ahli goyalarini aks ettiradi, ularning keng mehnatkashlar ommasi bilan alokasi yo'k degan uydirmalar tarqatilgan edi.

Ma'lumki, oddiy xalq orasidai yetilib chikkan barcha dono hunarmand iste'dodli shoir, musiqachi va olimlarning eng sarasi saroy xizmatiga jalb etilgan.

Saroydagi musiqachilar uyushmasida faoliyat ko'rsatib kelgan mashhur sozanda va xonandalar el nazariga tushganlariga kadar qishloq va shahar aholisiga musiqiy xizmat ko'rsatib, ularning ijodiy printsiplari shu oddiy xalq musiqasi asosida shakllandi. Binobarin, maqomlarni yaratishda ham ustoz ajdodlarimiz xalq musiqasining yorqin namunalaridan unumli foydalanganlar. •

Mustaqillik sharofati bilan barcha milliy qadriyatlarimiz katorida maqomlarning ham maqomini tiklash, ularning nazariy asoslari va amaliy ijrosini keng ko'lamda o'rganish nazarda tutilmoqda.

Shu nuqtai nazardan yondashib maqom sho'balarini yoki ulardan olingan parchalarni tinglash, ayrim namunalarni kuylash,

umumta'lim maktablaridan boshlab kollejlarda, universitetlar va konservatoriyadagi o'quv jarayonlariga kiritilgan.

Maqomlarni o'rganish va o'rgatish tizimi hozirga kadar uzil kesil shakllanib bo'lgan emas. Agar biz bu jarayonning o'tmishdagi tizimiga nazarimizni karatmokchi bo'lsak, ustoz shogirdchilik an'analari va bu an'ananing og'zaki tarzda amalga oshib kelganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi kunlarda esa bu jarayon kisman Yevropa nota tizimiga asoslanganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu har ikkala o'rganish va o'zlashtirish usulining o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud.

O'tmishdagi ustozlar o'zlariga ma'qul bo'lgan, ya'ni kuchli musiqiy xotiraga, ovozga va qizikishga ega bo'lgan yoshlarni tanlab maqomlar ijrosini o'rgatgan bo'lsalar, hozirgi kunda ayrim o'rta miyona musiqiy imkoniyatlarga ega bo'lgan yoshlar ham maqom musiqasi bilan shugullanmoqdalar. Bunga nota yozuvi va maqomlar ijrosi audio yozuvlari sabab bo'lmoqda.

Maqomlardek murakkab va mukammal musiqiy janrlarni o'zlashtirish va kasb qilib olish uchun esa avvalo yetuk ustozlardan ta'lim olish va ko'shimcha vosita sifatida nota yozuvi hamda turli ijrochilarning audio yozuvlarini taqkoslab eshitishdan foydalanish zarur.

Maqomlar ijrosi bo'yicha ixtisoslashgan o'quv dargohlarida o'qiyotgan talaba yoshlar maqomlar ijrosini o'rganish uchun turli usullar (yetuk maqomxon ustozlarning ijrolarini eshitish, ustozlarning ijro ko'rsatishlari, imkoni boricha takomillashgan nota yozuvlaridan foydalanish, o'z ijrosini magnit tasmasiga

yoziq, kaytib tinglash va shu yo'l bilan ijrosini takomillashgiriq va boshqa)dan foydalanadilar. Umumiy musiqiy-ta'lim va musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonida esa, asosan maqomlar xakida nazariy ma'lumotlar olish va maqomlarning ayrim yorqin namunalarini yoki ulardan olingan parchalarni kuylab o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Buning sababi shundaki, umumiy o'rta-ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan o'quvchilar maqomlarning umumiy tabiati va xususiyatlaridan xabardor bo'lib, ulardan ma'naviy ozuka (lazzat) olishlari nazarda tutiladi. Musiqiy-pedagogik oliy va o'rta-ta'lim maskanlarida ta'lim olayotgan talabalar kelajakda musiqa muallimlari bo'lib yetishishlari tufayli maqomlar va boshqa an'anaviy kasbiy musiqa janrlarini umumiy tarzda o'rganishlari va o'quvchilarga o'rgatishlari talab etiladi. SHuning uchun musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonida asosan maktab musiqa dasturlari va darsliklaridagi maqom namunalarini birinchi navbatda o'zlashtirib olishlariga urgu berish lozim.

Yana bir muammo mavjudki, uning yechimini topish bir muncha mushkul. Bu muammoning asosiy kelib chikish sababi bir necha o'n yillar muqaddam, turli musiqiy ta'lim dargoxlarini tugatib, hozirgi kunda o'kituvchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan ustozlarning o'sha sobik davrda maqomlarni o'rganishdan bebahra qolganliklaridir. Endi bu ustozlar anchagina yoshlari ulgayib, maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlariga xos xususiyatlar (qochirim, nola va boshqa bezaklar)ni o'zlashtirib olishga qiynaladilar. SHunga qaramasdan barcha ustozlar

maqomlar ijrosini imkonlari darajasida o'rganib olishlari, bu janrlarning nazariy asoslarini bilishlari xamda o'z shogirdlariga bunday yuksak badiiy asarlarni o'rganish uchun to'g'ri tavsiyalar bera olishlari zarur.

Xullas, ustozona yoki kasbiy musiqa janrlarini yoshlarga o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish zarur deb o'ylaymiz:

- maqomlar va kasbiy musiqaning boshqa janrlari (mumtoz kuy va ashula, katta ashula, doston nomalari)ga xos nazariy ma'lumotlar va amaliy ijro xususiyatlari bilan tanishish;
- kasbiy musiqaning yetuk ijrochilari hamda ularning ijro yo'llarini gaqqoslab, tahlil qilish;
- xususan maqomlarning turkumliligi, tuzilish xususiyatlari (cholguda xona, bozgo'y, ashulada daromad, miyonxat, dunasr, namud, avj, furovard va hanglar)ni ijro davomida bir-biridan ajrata olishni o'rganish;
- maqomlarning nota yozuvlarini o'rganish va notada o'z aksini topa olmagan ijrodagi nozik nuqtalarini topib, ularni jonli ijrodagi holatini ta'minlash;
- audio va video yozuvlardagi maqom numunalarini tinglash;
- maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlaridan ayrim asarlarni muntazam ravishda yukorida ko'rsatilgan usullar asosida o'rganib borish va o'z ijrosini takomillashtirishga intilish;



- ayrim tadbir va kontsertlarda ijro chikishlarini amalga oshirish; Agar aytilgan tavsiyalar va boshqa kasbiy manbaalarda berilgan

maslahatlarga amal kilib, maqomlar ijrosiga sidkidildan yondashilsa, bu boradagi barcha kiyinchiliklarni yengib, maqomlardan bahramand bo'lish mumkin.

Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqani musiqashunoslikda o'rganilishiga kirishish taxminan 1960- yillardan boshlangan bo'lsa, bu musiqa janrlarini maktab musiqa faoliyatiga olib kelish g'oyalari 80-yillarda boshlangan edi. 1980 yil bahorida Xivada o'tkazilgan folklorchi musiqashunoslar seminarida ko'pgina o'zbek musiqashunos, kompozitor va musiqa oliy o'quv yurtlari pedagoglari maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlarining jo'r tarbiyaviy ahamiyatini qayd qilib, ularni o'rganishni maktabdan boshlash lozimligini aytgan edilar. Jumladan, O'zbekiston davlat madhiyasining muallifi, ustoz kompozitor Mutal Burhonov Buxoroda mumtoz musiqa janrlaridan bo'lgan maqomlarni o'rganish qadimdan beri ustoz-shogirdchilik yo'li bilan bolalikdan boshlangani, shogirdga dastlab tanbur chalish va undan keyin boshqa sozlar va ashula o'rgatilgani haqida gapirgan edi. Mazkur seminarining qaroriga binoan maorif vazirligiga maktab musiqa darslari mazmunini maqom, mumtoz kuy va ashulalar, katta ashula va doston musiqalari bilan boyitish topshirilgan edi. 1982 yilda pedagogika institutlarining musiqa-pedagogika fakul'tetlarida maqom

asoslarini o'rganishning dasturi A.E.Qo'shaev tomonidan tuzilib nashr etilgan edi. 1980 yillarning oxirlarida D.F.Amonullaev tomonidan maqomlar qisqa hajmda bo'lsada 7-sinf darsligiga kiritildi. Ana shu davrlardan beri kasbiy musiqa janrlarini o'rganish va maktab musiqa faoliyatiga jalb etish amaliyoti davom etib kelayapti. Shuning bilan birga bu mumtoz asarlarni maktabda o'rganish uslubiyoti borasida ham anchagina ishlar amalga oshirilgan. Oqil Ibroximov va Hamidulla Nurmatovlar birinchilardan bo'lib maktab musiqa darslarida maqomlarni o'rganish uslublari haqida fikrlar bildirdilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma tuzdilar. Yuqorida tilga olingan ishlar bu boradagi muammolarni yechishda ma'lum xizmat qildi. Ammo hozirgi kunda muammo oxirigacha yechilgan emas. Nazarimizda eng katta muammo nota to'plamlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, tinglash uchun mo'ljallangan magnit va garm yozuvlar hamda texnika vositalarining yetmashligidir.

O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning ko'proq qismida mutatsiya davri o'tayotganini sezib, musiqa darsi mazmunini bir muncha o'zgartirishi zarur. O'qituvchi rejalashtirilgan qo'shiqlarni o'rgatishda ko'proq qo'shiq mazmuni va mualliflari, musiqiy yo'nalishlar, musiqiy hayot yangiliklariga to'xtalib, baland pardalarda kuylash, uzoqroq davom etadigan vokal-xor mashqlarini silliqroq, asosan o'rta registr (primer) tovushlarda kuylatishga o'tishi tavsiya etiladi. Bu davrda o'quvchilarga ko'proq maqom, mumtoz kuy va ashulalar, katta ashulalar va dostonlar, ularning ijro an'analari, yorqin va taniqli

ijrochilari, jahon kompozitorlari haqida ixcham, qiziqarli hayotiy ma'lumotlar berib, suhbatlar uyushtiradi. Ko'proq musiqa eshitishga harakat qilinadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga ko'pincha buyuk kompozitorlarning sahna asarlari, dostonlar ko'proq yoqadi. Bunday asarlarda lirika, qahramonlik va boshqa insoniy sifatlar o'quvchilarga so'z va musiqa uyg'unligida zo'r ta'sir ko'rsatib, ularni o'ziga rom qiladi. Bunda o'qituvchining kasbiy saviyasi, nutqi, emoyional his tuyg'ulari ham muhim rol o'ynaydi.

Darslarning qiziqarli va samarali o'tishi ko'rgazmali qurollar, texnika vositalaridan unumli foydalanish hamda fanlar aro aloqa omillaridan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Adabiyot darslarida o'tiladigan mavzulargsha murojaat qilib, tarixiy voqealar o'z aksini topgan adabiy asarlar, mumtoz she'riyatimizning sultoni Alisher Navoiy va boshqa peshqadam shoirlar ijodi bilan bog'liq maqom, mumtoz ashulalarning she'riy matnlari tahlili o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Ammo bu mutatsiya davrida kuylashni butunlay to'xtatib, faqat tinglash va suhbatlarga o'tish degan gap emas. Yangi dasturda maqom parchalari, doston qo'shiqlari va mumtoz ashulalardan qisqartirilgan (baland avjlari qoldirilib olingan) parchalar kuylash tavsiya etilgan. Bunda mutatsiya davrini o'tkazayotgan o'quvchilar baland pardalari uchraydigan qismlarni kuylamaydilar.

Yangi dasturning avvalo, darsning muayyan mavzulari – maqomlar (Buxoro SHashmaqom), Xorazm maqomlari, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari, mumtoz kuy va ashulalar, doston qo'shiqlari va boshqa og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlariga

kirmaydigan musiqa janrlarini Yevropa musiqasi namunalari bilan qiyosiy o'rganish asosida ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan sobiq eski tuzim davridagidek har bir faoliyat turi o'z qisqa maqsadiga xizmat qilib, ularni amalga oshirish uchun aniq belgilangan daqiqalar (dars vaqti) ajratilmasdan, musiqa tinglash, mashqlar va qo'shiq tinglash, mashqlar va qo'shiqlar kuylash hamda musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mazmuni va mavzuini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Bu omil mumtoz kuy va ashulalarni asosan tinglash yo'li bilan o'zlashtirishga keng imkon yaratib beradi. Uchinchidan dars mavzusining qiziqarli ritmik harakatlar, chapak va bolalar o'yinchoq musiqa asboblari shiqildoq, doyracha, qoshiq va boshqa ritmik asboblari orqali musiqaga jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatlari qo'llaniladiki, bu faoliyatlar o'quvchilarni murakkab mumtoz musiqa janrlarini o'zlashtirishlari uchun yordam beradi. Ushbu faoliyatlar zahirida faol ishtirok va ijrochilik xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha faoliyat turlari dars mavzusining ajralmas qismi sifatida amal qiladi. Bu jihatdan "Musika madaniyati" prejmeti aralash dars tipiga kiradi va undan darsning umumiy mavzusiga bo'ysunuvchi o'zaro, mantiqan bog'lanuvchi quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qiladi: musiqa idroki (tinglash) kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar va hakoza.

Musika madaniyati darsining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Musika idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyati o'zaro uzviy bo'linish bilan

qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. O'quvchilarning tabiiy musiqa asboblari – bu larning ovozlari. Dasturda berilgan ayrim mumtoz ashulalarni kuylash uchun moslatilgan parchalari milliy musiqiy an'analar uslubini o'zlashtirib olish, musiqiy merosga xos yorqin intonatsiya, usul (ritm) hissini shakllantirish, o'quvchilarning musiqa o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz – ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi, ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi. Ammo bu xususiyat mumtoz ashula namunalaridan parchalar kuylash o'z-o'zidan to'g'ri yo'lga kirib qolmaydi. Buning uchun o'quvchilar avvalo bunday asarlarning asl (haqiqiy) ijrosi (grammoplastinka yoki magnet yozuvida) bilan tanishishlari, o'qituvchi ijrosida taklif etilgan variantini 2-3 marta tinglashlari, milliy mumtoz ashulaga xos nola va boshqa kuy bezaklarining mohiyatini tushunishlari zarur. O'qituvchi bunday murakkab asarlarni kuylatish va tinglatishdan oldin bir qancha zaruriy vokal – va xor malakalarini amalga oshiradi. Sof intonatsiya (pardani yoki tovushni tiniq kuylash), talaffuzni shakllantirish, vokal ansambli (hamjihatlik bilan kuylash, shoshilmaslik, boshqalardan orqaga qolmaslik, shoshilib oldinroq kuylamaslik va hokazo) ularni doimo diqqat markazida saqlashi zarur.

Zotan, tinglash diqqat va kuylash o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijrochilik harakatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va

musiiqy tavsiflarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

### **2.3. Xalq musiqasini o‘rgatish uslublari**

Hozirgi mustaqil yurtimizda bo‘layotgan tub siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar xalq ta’limi tizimiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qabul qilingan qonuni mazmunida umumta’lim maktablarida musiqiy ta’lim-tarbiya ishlariga alohida e’tibor berish va bu ishga ijodkorlik bilan yondoshish talab etiladi. Bunda o‘z milliy ma’naviyatini to‘g‘ri anlagan, xalq ruhiyatini teran his eta oladigan xalqparvar yosh avlodlarni tarbiyalashdek muhim vazifalar kun tartibiga qo‘yilgandir.

Modomiki shunday ekan, demak umumta’lim maktablarida olib borilayotgan “Musika” darslarini mohiyatan o‘zgarilish, ularda asosiy urg‘u o‘zbek xalqi musiqa ijodiyotiga berilmoq maqsadga molikdir. Chunki xalqimizning milliy kuy-qo‘shiqlari zamirida yoshlarni mardlikka, halollik va poklikka chorlovchi hamda ma’naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi oliyjanob tuyg‘ular mujassam etilgandir. Albatta, bu kabi ijodiy va mas’uliyali vazifalarni amalga oshirish uchun eng avvalo xalq musiqa ijodini yaxshi bilimdoni bo‘lgan malakali mutaxassislar bo‘lmog‘i lozim.

Zero, “Musika” darslarning mazmun mohiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilim saviyasi, milliy kuylarni e’zozlashi, ularni

badiiy yetuk tarzda ijro eta olish va umuman, madaniyat darajasi kabi omillarga bog'liqdir. Ammo shu bilan birga, xalq musiqa ijodini yosh avlod tomomidan o'zlashtirib borishida birgina "Musika" darslari bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Demakki, musiqiy ta'lim-tarbiyaning faol shakllaridan o'rinli foydalanish joizdir. Maktabdan tashqari muassasalarda, xususan, musiqa to'garaklarida o'quvchilar folklor ansamblini tuzish-ana shunday ahamiyatga ega. To'g'ri, bunday tadirning amalda o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Ular esa ansamblga zurrur bo'lgan dastur qo'llanmalardan tortib to ijrochilar (qatnashchilar) uchun cholg'ularni, kiyim-boshlarni hozirlashdan iboratdir. Shunday bo'lsada, biroz tabiiy bo'lgan bu qiyinchiliklarni ro'kach qilib, bu turdagi ansabllarni tuzishdan voz kechmaslik kerak. Zotan, gap mustaqil davlatimizning istiqbolini ta'minlovchi yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish xususidadir. Hozirda bu vazifani amalga oshirishga qaratilgan ma'lum ishlar ham olib borilmoqda. Chunonchi, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida folklor ansamblining rahbariga dastlabki ko'mak va yo'l-yo'riqlar tarzida maxsus dastur tayyorlanib nashr etildi. Endigi navbat esa metodik qo'llanmalar va boshqa manbalarni tayyorlab berishdan iborat bo'lib turibdi. Ammo bu ishlarning ro'yobga chiqishi ma'lum muddat talab etadi. Shu vaqt ichida ansambl rahbarlari qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmog'i kerak? Eng avvalo ansambl rahbari amaldagi dastur asosida yillik reja tuzib oladi unda jumladan, zarur notalar, gramyozuvlar, ko'rgazmali vositalar, to'garaak mashg'ulotlarining



jadvallari hamda mashg'ulotlar mavzui ishlab chiqiladi. Bu ish bajarilgach, asosiy mashg'ulotlarga o'tiladi. Mashg'ulotlarning shakllari ham turlicha bo'lishi mumkin. Avvalambor ansamblni uch guruhga bo'lib mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bunda o'quvchilarning qobiliyat darajasi va yoshi kabi omillar e'tiborlidir. Masalan:

1. Kichik guruh- IV sinf o'quvchilaridan;
2. O'rta guruh- V-VII sinf o'quvchilaridan tashkil etilishi lozim.

Ansambl rahbari o'quvchilarga xalq cholg'u asboblari o'rgatish va ularga jamoaviy tarzda ijro etish sirlarini o'rgatish bilan bir qatorda musiqa nazariyasi, folklor namunalari, xalq musiqachilari borasida ma'lumot berib borish mashg'ulot unumdorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, musiqa tinglashga katta ahamiyat bermoq zarur. Mashhur xalq san'atkorlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular ishtirokida "Jonli tinglov" uyushtirish tadbirlari o'tkazish, samaradorligi bilan diqqatga sazovordir. Shu bilan birga, to'garak rahbarining o'zi ham milliy cholg'u (dutor, g'ijjak, rubob va b.)larda ijro etib, ovozda qo'shiqlari xirgoyi qilib berishi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatib borishi mumkin.

O'quvchilarni yoshlikdan boshlab xalq badiiy an'analariga hurmat nazari bilan qarashni tarbiyalash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Buning uchun turli yo'l-yo'riqlardan foydalanish mumkin. Xususan, ansambl ishtirokchilariga uy vazifasi tariqasida ota-onalari, qarindosh-urug'lari yoxud



mahalladoshlari bilan va azaldan aytib kelinayotgan qo'shiqni o'rganib kelishi topshiriladi. Albatta, o'quvchilar qo'shiqni mukammal o'rganib kelishlari mushkuldir. Shu bois ular o'rganilayotgan qo'shiq haqida iloji boricha ko'p ma'lumot to'plashga harakat qiladilar. Chunonchi, qo'shiq taxminan qaysi davrlardan beri ijro etiladi, uni qaysi vaziyatda kuylaganlar, qo'shiq matnidagi noma'lum yoki tushunilishi qiyin bo'lgan so'z atamalarining mazmuni so'rab surishtiriladi. Imkoni bo'lsa, qo'shiq mangitofonga yozib olinadi. So'ngra bu qo'shiqlar ansambl mashg'ulotlari jarayonida tinglab ko'rilishi yoki alohida sharoitda o'rganilishi mumkin. Demak, har bir qo'shiq haqida iloji boricha keng va taroflicha ma'lumot to'plashga harakat qilmoq kerak. Diqqatga sazovor qo'shiqlarni esa sahnalashtirish, ya'ni qo'shiq kuylanadigan vaziyatni sahnada "jonlantirish" va uning mazmunini sahnaviy hatti-harakatlar vositasida aks ettirish mumkin. Bu esa xalq ijodini yoshlar orasida targ'ib etishda nihoyatda ma'quldir. Chunki bunday shakllar pirovardida qo'shiqning ta'sir kuchi yanada ortadi. Bu borada ansambl rahbarining tutgan o'rni ham muhimdir. U xususan, har bir qo'shiqni puxta o'rganishi, sahna uchun muhim ssenariylar yozib borishi lozim bo'ladi. Shu asnoda o'quvchilardan iborat folklor ansambli mahalliy badiiy an'analarni qayta tiklanishiga, ularni yangi hayotga qaytishiga o'z hissasini qo'shib boradiki, bu hol o'quvchilarda sog'lom milliy iftixor tuyg'ularini rivoj toptiradi.

Folklor ansambli vaqti-vaqti bilan konsertlar berib turishi lozim. Zero, uning o'sishiga yaxshi kafolatdir. Chunki ansambl

ijro etayotgan xalq kuy- qo‘shiqlari ommaviy tinglovchi tomonidan qarsaklar bilan o‘ziga xos baholanib turiladi. Ijro etilgan asarlar evaziga olingan tinglovchi olqishlari o‘quvchilar uchun rag‘batlantiruvchi bir ijodiy “to‘rtki” bo‘lib, ularni o‘z faoliyatlaridan mamnun bo‘lishlariga va bu ishda izchil davom etishlariga da‘vat etadi.

Maktab va maktabdan tashqari sharoitda folklor ansambllarini tuzish-bu ayni chog‘da yosh va kelajak avlod qalbida avlod-ajdodlarining ulug‘ siymosini jonlantirish, ularning betakror badiiyatidan bahramand etish, binobarin, qadriyatlarimizni o‘z o‘rniga qo‘yib e‘zozlashimiz, hamda yoshlarimizni ayrim bema’no va sershovqin “begona” kuy-qo‘shiqlar ta’siridan muhofaza etishimiz demakdir. Milliy kuylarni chinakamiga ardoqlab, qalblariga jo qilgan yoshlar esa nozik did va badiiyat sohibi bo‘lishlari bilan birga yana asl xalqparvar bo‘lib yetishishlari hech shak-shubhasizdir.

#### **2.4. Musiqa darslarida maqom ashulalarini o‘rganish usullari**

O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy ma’naviyati, istiklol uchun kurashi xamda orzu umidlari in’ikos etiladi. Bu buyuk ma’naviyatimiz yosh

avlodning madaniyati va milliy tafakkurini shakllantirishda benazir vositadir.

Milliy musiqa merosimizni tashkil etuvchi kasbiy janrlar tarkibi asosan quyidagilardan iborat: ashula, yalla (shaklan rivojlangan, bastakorlik ijodiga oid namunalari), katta ashula, suvora, kuy. Maqom, doston.

O'zbek milliy ashulachiligining shartli xususiyatlaridan biri shundaki, uning shakl va navlari, toifa va uslubiy ko'rinishlari xilma-xildir. Ashulaning eng oddiy xalqchil, misollari qo'shiq janriga biroz yaqin deyish mumkin. Ammo qo'shiqqa nisbatan ashulaning sof musiqiy ko'lami ancha keng. Shu bois ashulada musiqiy matnning rivojlanishi ham davomliroq bo'lib, baland avji borligi bilan sezilarli darajada farqlanadi. Bunday toifadagi asl namunalar san'atkorlar orasida ko'proq "xalq ashula" si deb yuritiladi.

Ana shunday xalq ashulalarining eng mashhurlaridan biri, shubhasiz, "Tanovor" dir. U tamomila ayollar ijodkorligi va ijrochiligiga manusb bo'lib, Farg'ona vodiysi – Toshkentda ayniqsa katta o'rin tutadi. Hozirda bu ashulaning bastakorlar tomonidan qayta ishlangan, moslashtirilgan, yoki shu yo'lda yangidan yaratilgan o'ndan ortiq turlicha namunalari ma'lum va mashhurdir "Tanovor", "Farg'ona Tanovori". "Qo'qon Tanovori", "Adolat Tanovori", "Yovvoyi Tanovor", "Tanovor 1", "Tanovor 2", "Tanovor 3", "Yangi Tanovor", "O'yin tanovori" va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi.

Ashula janrining ko'p uchraydigan yana bir ko'irinishi asosan uzoq – yaqin o'tmish davrlar bastakorlik ijodiyotiga molikdir. Bunday

ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo‘lib, mumtoz milliy musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Uning kattagina qismi ustoz ko‘rgansan’atkorlar – xonada va hofizlar ijro bisotidan asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, “Ko‘cha bog‘i 1, 2”, “Karimqulbegi”, “Abdurahmonbegi”, “Girya 1,2” yoki Xoji Abdulaziz Rasulovning “Guluzorim”, “Bebokcha”, To‘xtasin Jalilovning “Ishq seli”, “Gulistonim mening”, Yunus Rajabiyning “Ra’nolanmasun”, Doni Zokirovning “Ey sabo”, Saidjon Kalonov “Topmadim”, Faxriddin Sodiqovning “Go‘zal”, Orifxon Xotamovning “Qoshi yosinmu deyin”, Xolxo‘ja To‘xtasinovning “Aylagach” va boshqalar shu jumlagi kiradi.

Kasbiy musiqa merosimizni tashkil etgan badiiy barkamol sifatlari bilan ta’riflanuvchi ashulalar qatorida mazkur namunalar alohida asar sifatida, ko‘proq u yoki bu maqom ashulalari yoki maqom ashula yo‘llari deb yuritish ma’qulroq “Samarqand ushshog‘i”, “Bayoti SHeroziy”, “Toshkent Irog‘i”, “Yovvoyi CHorgoh” kabilar yorqin misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi zamon o‘zbek bastakorlik, shuningdek kompozitorlik ijodkorligida qo‘shiq ila ashula janri muhim ahamiyat kasb etib, shaklan, mazmunan va usluban yanada boyitilmoqda.

O‘zbek milliy – an’anaviy ashulachiligi deganda keng ma’noda katta ashula nomli janr ham nazarda tutiladi, albatta. Biroq hisobga olmoq lozimki, mazkur janrning ayni musiqiy qonuniyatlari, uslubiy ko‘rsatgichlari hamda ijrochilik me’yorlari ashulaga nisbatan o‘zgachadir. Darhaqiqat, katta ashula o‘zbek bastakorlik ijodiyotining noyob, benazir mahsullaridan biridir. U kasbiy, ustozona musiqiy

merosimiz qatlamiga mansub bo'lib, asosan Farg'ona vodiysi – Toshkent maalliy uslubining yorqin va benazir belgilarini o'zida mujassamlashtirgan. Katta ashulada qamrab olinuvchi tovushlar ko'lami nihoyatda keng. Uning musiqiy tili usulsiz, ya'ni badihago'ligi, ichki tuzilishi murakkabligi, ijro etilish rusumlari esa tanholigi bilan alohida ajralib turadi.

Asl katta ashula asosan ikki, ba'zida uch nafar xonandaning hamnafasligida, hech qanday cholg'u jo'rligisiz ijro etiladi. Katta ashulachilar odatda bir qo'lida likobchani ushlagan holda goho navbatma – navbat, goho birgalikda baland pardalarga intilib kuchli va ta'sirchan xonish qilishadi. Asrning she'riy matni sifatida o'zbek shoirlarining ishqiy falsafiy, lirik nasihatomez, ba'zida diniy – falsafiy mazmundagi g'azallari qo'llaniladi. SHunini e'tiborga sazovorki, XX asr mobaynida bir qator hozirgi zamon o'zbek shoirlarining turli mazmundagi she'rlarini ham jalb qilish amaliyoti paydo bo'ldi.

Maqomda bo'lgani singari, katta ashulada ham hofizlikning ustoz – shogirdlik an'anasi yetakchilik qiladi. Uning ko'plab ajoyib mumtoz namunalari hofiz – san'atkorlar ijrochiligi orqali bizgacha yetib kelgan. Asosan XX asrning ikkinchi yarmida bastakor – hofizlar tomonidan qayta ishlangan, bir qancha katta ashulalarning ovoz, biror cholg'u yoki ansambl jo'rliqi uchun moslashtirilgan namunalarini, shuning dek, katta ovozga ega ayrim ayol – san'atkorlar ijrochiligida o'rin tutishini ham qayd qilishimiz mumkin.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, katta ashula o'zbek musiqa merosidagi ko'plab ashula va cholg'u asarlarga, xususan uslubiy jihatdan sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, “yovvoyi

maqom” yoki “patnisaki maqom”, “surnay maqom yo‘llari” deb nomlanuvchi o‘ziga xos “birikmali” janr ko‘rinishlari bu ijodiy jarayonning eng salohiyatli samarasidir. O‘z navbatida katta ashula negizida usulli, cholg‘u jo‘rligi mavjud bo‘lgan mumtoz ashula yo‘llari ta’siri ostida yaratilgan barkamol asarlar kam emas.

O‘zbekistonning bir necha avlod bastakorlari, kompozitorlari ham katta ashulaning noyob musiqali vositalaridan, nodir ijro xususiyatlaridan o‘zining yangidan – yangi ashula va cholg‘u asarlarida unumli foydalanishganiga guvoh bo‘lamiz.

Aytim janrlardan yana bir noyob ko‘rinishi asosan Xorazm vohasiga xos bo‘lib, suvora nomi bilan ma’lum va mashhurdir. Bu atamaning kelib chiqishi “suvoriy”, ya’ni “otliq”, “yaavndoz” ma’nosini bildiruvchi so‘z bilan bog‘liq.

Suvora o‘zbek bastakorligiga mansub boshqa ashula yo‘llari singari mumtoz she’riyat bilan bog‘liq holda rivoj topib kelgan. Bunda Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat singari shoirlarning g‘azallari katta o‘rin tutadi. Suvora shaklan va usluban ko‘pro maqom ashulasi turiga tutashib ketgan. Har holda ularning barqaror doira usuli davomli va baland avjlari, muazzam umummusiqiy uslubiy tabiati turkumli shaklning qo‘llanilishi bundan yaqqol dalolat beradi. Xorazm maqomlarining manzum (aytim) bo‘limi tarkibida suvora sho‘‘balari ham uchraydi.

SHashmaqom ya’ni olti maqom majmuasi XVIII asrning birinchi yarmida Buxoroda (saroy sharoitlarida) maqomdan ustozlar ijodiy faoliyatida uzil-kesil shakllangan. Ushbu muhtasham fikrni “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” nomli maqomlar tashkil

etadi. Ularning negizida asosan parda tuzilishi (lad, tuzuk) vazn hamda shakl qonuniyatlari birligi yotadi.

Mazkur maqomlarning har birida avvalo muayyan ruhiy holat u bilan bog‘liq g‘oya, mavzu va mazmun mumtoz darajada ifoda etilgan. Ilmiy nazariy jihatdan esa maqomning mezonlari pardalar uyushmasi, uning zaminida bitilgan kuy ohanglar vobastligi vazn usul tartibi bilan belgilanadi.

Maqom nomlarining asosiy lug‘aviy ma’nolari quyidagicha:

1. “Buzruk” – katta, ulug‘
2. “Rost” – to‘g‘ri, haqqoniy
3. “Navo” – ohang, kuy
4. “Dugoh” – ikki parda, 2-parda
5. “Segoh” – uch parda yoki 3 -parda
6. “Iroq” – mamlakat nomi

Ushbu muazzam turkumga o‘z vaqtida mumtoz musiqa merosimizning alloma – tadqiqotlaridan san’atshunoslik fanlari doktori, Ishoq Rajabov, javob tomonidan: “SHashmaqom” olti turi pardalirag moslab olingan va oltixil ladga asoslangan kuy va ashulalar yig‘indisidan iborat deb qisqa va lo‘nda ta’rif berilgan.

Buxoro olti maqomning har biri ikkita katta hajmli murakkab ichki tuzilmasi bo‘limlaridan iborat. Bulardan birinchisi “Mushkilot” deb ataluvchi sof cholg‘u bo‘lishi hisoblansa, ikkinchisi - “Nasr” deyiluvchi ashula (aytim) bo‘lishidir.

SHashmaqomning “Mushkilot” bo‘lishi “Mushkilot” (lug‘aviy ma’nosi “qiyinchiliklar, og‘irliklar”) deb ataluvchi maqomning birinchi bo‘limida shu maqomga mansub barcha cholg‘u kuylar o‘rin

olgan. Ular qator yirik hajmli hamda 46 ta shaklan tugal kuy namunalari mavjuddir. Jumladan: Buzruk va rostda 7 tadan Navo va Segohda 8 tadan, Dugohda 10 ta, Iroqda 6 ta, cholgʻu asarlar oʻzaro taqsimlangan

CHolgʻu qismlarning toʻliq nomlanishidan shu narsa ayon boʻldiki, ularning bir qanchasi barqaror boʻlib, deyarli hamma maqomlarda uchraydi. Bulardan tasnif, terjeʼ, gardun, muxammas va saqil degan nomlar bilan yuritiladi.

Tasnif soʻzi “sinflashgan”, tabaqalashgan, yaratilgan kabi maʼnolarni birlidiradi. Ushbu qism mushkilot boʻlimida nainki asosiylardan birinchisi, balki har bir maqomning bosh cholgʻu qismi vazifasini oʻtaydi.

SHashmaqom majmuasidan jami 6ta tasnif mavjud. Bular “Tasnifi Buzruk”, “Tasnifi Rost”, “Tasnifi Navo”, “Tasnifi dugoh”, “Tasnifi segoh” va “Tasnifi iroq” lardir. Barchalarning parda tuzilmalari hamda kuy mavzulari boshqa – boshqa boʻlsa – da doyra

### "Таснифи Бузрук"



usuli zarblari deyarli bir qolipda. SHu bois uning shakli musiqachilari orasida koʻproq “tasnifi usuli” deb yuritiladi.



Tarje' so'zi (ab'zan "tarji" deb ham yuritiladi.) mushkilot bo'limining ikkinchi asosiy qismidir. Uning lug'aviy ma'nosi "qaytarish", "Naqorot", qismga bunday nom berilishi bejiz emas ekan. Zero, unda yangi vazn va o'sha mayin doyra usuli joriy etilmagan holda, avvalgi tasnif usulidan takroran foydalaniladi. Biroq bosh qismga qiyoslanganda tarjimalarning mantiqiy davomi topilib rivojlanishning ichki shakli va uslubi boshqa qismlardan bir muncha farq qiladi, umumijroviy sur'at ham hiyla jonliroqdir.

SHashmaqomda tarji qismlardan bir muncha farq qiladi, faqat Rost maqomida uchraydi. Demak, majmua tarkibida beshta bunday nomdan asarlar mavjud. Ular to'liq holda "Tarjei Buzruk", "Tarjei

### "Таржеи Наво"



Dugoh", "Tarjei Segoh" va "Tarjei Iroq" deb yuritiladi.

Gardun so'zining lug'aviy ma'nosi - "osmon", "falak", "aylana". U maqom mushkilotning uchinchi asosiy qismi sifatida o'ziga xos vazn va doyra usuliga ega.

Bu usul tasnifnikidan hiyla murakkab va davomliroq bo'lib, ildam suratda ijro etiladi. An'anaviy iboralarda uning o'qitilishi "baka, bak, bak, baka bum, bak ist bum".

Gardun qismi faqat iroq maqomida uchraydi. Demak, shashmaqom tarkibida jami beshta gardun namunasi bor. Bular: “Garduni Buzruk”, “Garduni Rost”, “Garduni navo”, “Garduni Dgoh”, va “Garduni segoh”lardir.

Tasnif va tarjelar kabi gardun namunalari ham bir-biridan parda tuzilmasi, kuy mavzui, uning rivoji bilan o‘zaro farq qiladi. Musiqiy vazni va doyra usuli ular bir xildir.

### "Гардуни Дугох"



Muxammas so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “bilmas”, “beshlangan”. Mushkilot bo‘limida u asosiy qismlardan to‘rtinchisidir. Muxammasning farqli belgisi bo‘lmish o‘ziga xos musiqiy vazni, unga mos keluvchi doyra usuli hajman katta va juda murakkablardan hisoblanadi.

Bunday asarlarning kuy va usul mutansoibligi ancha murakkab bo‘lib, sozanda uchun muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ammo, shunga qaramay o‘tmishda muxammas eng mashhur cholg‘u maqom

yo‘llaridan sanalgan ekan. Zero SHashmaqomda ularning umumiy soni boshqalarga nisbatan ko‘p – jami 16 ta jonli namunalardan iborat.

Har bir maqomning mushkilot bo‘limida tarkibli qismlarning nvbatma – navbat kelishida muxammaslarning umumiy soni ikkitadan to‘rttagacha yetishishi mumkin.

### "Мухаммаси Баёт"




Saqil so‘zining lug‘aviy ma’nosi - “og‘ir” qiyin. CHolg‘u bo‘limning asosiy qismlardan yakunlovchisiga shunday nom bejiz berilmagan bo‘lsa kerak. Buning sabablaridan biri hajmi jihatdan eng katta va o‘ta murakkab doyra usuliga va unga monand kuy mavzusiga egaligida.

Bu usul zamonaviy nota yozuvida 20-24 taktni hosil qiladi.


Buxoro SHashmaqomi mushkilotlarida saqillar ham juda xuddi muxammas kabi, bir nechta, aniqrog‘i muayyan maqom tarkibida har xil mavzuli uchta namunagacha oldinma-ketin o‘rin tutgan bo‘lishi mumkin.

## "Сақили Вазмин"



Olti maqomining cholgʻu boʻlimlari tarkibida bulardan tashqari bir necha butkul oʻziga xos betakror qismlar uchraydi. SHu boisdan ularni noasosiy deb atash mumkin. Bular jumladan, Navo maqomida, “Nagʻmai Orazi Navo”, “Dugohda” “Peshravi Navo”, “Segohda” “Xavfi Segohlar”dir. Muzkur qismlarning usul koʻrinishag nazar ekanmiz birgina “Samoï dugoh”da noyob doyra zarblariga duch kelimiz. Qolgan barcha asarlar ravon taraluvchi tasnif usuli asosida bastalangan

## "Самой Дугох"



Cholgʻu qismlarning ikki shakli asosan cholgʻu qismlarining ikki shakli “xona” va “bozgoʻy” nomli tuzilmalarning tartibli almashinuvchisi natijasida barpo etiladi.

“Bozgo‘y” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “Qayta aytish”dir. U so‘f cholg‘u musiqasiga xos bo‘lgan kuyning rivojlanishi jarayonidagi muayyan takroriy tuzilmasi, ya‘ni naqarot hisoblanadi. Bozgo‘ylar SHashmaqom cholg‘u qismlarida muntazam o‘zgaruvchan “xona” nomli kuy tuzilmasi almashinib turadi.

Maqomning cholg‘u qismlari to‘la turkumli tarzda ijro etilgandan so‘ng odatda uning ashula bo‘limiga o‘tiladi. Hozirgi kunda muhtasham maqom turukmining cholg‘u yo‘llari yakkanavozlik va jo‘rnavozlikda keng ijro etilmoqda. Ular kamdan-kam to‘la holda ko‘proq esa shaklan tugal bo‘lgani uchun ham alohida-alohida asar sifatida chalinadi.

### **SHashmaqomning “Nasr” bo‘limi**

CHolg‘u bo‘limidan keyingi “nasr” deb ataladigan xilma-xil katta va kichik sodda murakkab ashula namunalaridan tashkil topadi. Lug‘aviy jihatdan arabcha nasr so‘zi “ko‘mak”, “yordam”, “zafar”, “g‘alaba”, “sochma asar”, “proza” kabilarni anglatadi. Ushbu bo‘limlarning barcha tarkibiy qismlari sho‘‘ba tarona hamda shaxobchalardan iborat.

Har bir maqomning o‘z ashula yo‘llari, yirik hajmli tuzilishi bo‘yicha murakkab bo‘lgan ikkita guruhni vujudga keltirgan. SHashmaqomda avval sho‘‘balarining birinchi guruhi so‘ngra ikkinchi guruhiga kiruvchi namunalar muayyan mantiqiy qoidali tartibda joylashgan.


### **Birinchi guruh sho‘‘balari**

Maqomning birinchi guruh sho‘‘balariga saraxbor, talqin, nasr, ularning taronalari hamda chkunlovchi ufar qismlari kiradi. Bulardan

tashqari deyarli har bir maqomda ushbu andozadan mustasno bo'lgan, uni boyituvchi, faqat shu maqomga xos ashula yo'llari o'rin tutadi. "Saraxbor" so'zining - ma'nosi "bosh xabarlar" ("sarbosh", "axbor" - xabarlar). Bu nomdagi qism ashula bo'limining dastlabki va bosh sho''basi hisoblanadi. Demak u har bir maqomning yetakchi musiqiy mavzuin bayon etuvchi asardir. Saraxbor eng yirik va murakkab ashula yo'li sifatida gavdalanadi. Asar darajada esa olti maqomning har birida shu maqom nomi bilan juftlashgan holda yuritiladi. bular jami 6 ta - Saraxbori Buzruk , Saraxbori Rost, saraxbori Navo , Saraxbori Dugoh , Saraxbori Segoh, Saraxbori Iroqlardir.

Saraxbor o'sh'basining musiqiy vazni eng sodda, doyra usuli esa unga to'la monand, bo'lib, ravon taraladi. SHu boisdan u odatda saraxbor usuli deb ham ishlatiladi. Mazkur usul shakli bir taktning kuchli hissasiga "bak", kuchsiz hissasiga esa "bum" zarblaridan hosil bo'ladi:

### "Сарахбори Бузрук "



Asosiy sho''balardan ikkinchisi talqin deb ataladi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi "tushuntirmoq", "uftirmoq". Uning nomdosh sho''balari Iroqdan tashqari hamma maqomlarda mavjud. Demak,

talqinlar jami beshta bo‘lib, Talqini Uzzol, Talqini Ushshoq , Talqini Bayot, Talqini Chorgoh, Talqini Segoh deb yuritiladi.

“Nasr atamasi” nafaqat ashula bo‘limini, balki uning tarkibidagi muayyan sho‘‘bani bildiruvchi nomdir. Nasr sho‘‘basi avvalgi qismlardan farqli o‘laroq, har bir maqomda bir necha namunalardan iborat bo‘lishi mumkin. Jumladan, Buzruk maqomida Nasri Uzzol, Nasrullovi, Rostda Nasri Ushshoq , Navro‘zi Sabo, Navoda Nasri Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo, Dugohda Nasri CHorgoh, OraziDugoh, HusayniyDugoh, Segohda Nasri Segoh, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi ajam, Iroqda Muhayri Iroq, ushbu ashula yo‘llarining barqaror va mushtarak belgilaridan biri nisbatan murakkab musiqiy vazni hamda unga mos keluvchi doyra usulidir.

Birinchi guruh sho‘‘balarining yakunlari “Ufor” deb ataladi. U harakatchan yengil raqssifat doyra jo‘rligida namoyon bo‘ladi.

### "Уфари Баёт"



Maqom sho‘‘balarining ikki tuzilishi ancha murakkab bo‘lib ularni tushunish va idrok etish eng muhim shakllantiruvchi vositalardan bo‘lishi avj tuzilmasi qonuniyatlarini o‘rganib olish lozim. Zero, atoqli maqomshunos I.Rajabovning ta’kidlashicha, avj va

namut nazariyasidan xabardor bo'lmay turib, sho'balarning ikki tuzilishi hamda shakllanish jarayonlarining qoida xususiyatlarini aniq tasavvur etish mumkin emas.

Shashmaqom sho'balarning musiqiy shakli nihoyatda puxta ishlangan qisman ijodiy erkinlikni taqozo etuvchi katta tuzilma sifatida gavdalanadi. Bu –shakl o'z ichki tuzilishi jihatidan ancha murakkab bo'lib, bir-biriga mantiqan uzviy bog'lanuvchi qator jumladan vujudga keladi. Aniqrog'i "sho'ba" shakli asosan "xat" nomli bir xat o'z navbatida odatda ikkita "nimxat" (ya'ni yarim xat) nomli kuy jumlariga ajraladi.

Sho'ba shakli ixcham yoki katta hajmli "cholg'u" "muqaddima" dan boshlanadi. U bosh kuy mavzusini to'liq holda ya'ni ikki musiqiy jumla miqyosida yoki uning bir jumlasini cholg'u yo'l sifatida bayon etadi. Sho'baning cholg'u muqaddimasi ijro erkinligi darajasida o'zgaruvchanligi bilan ajraladi. Ba'zi vaziyatlarda jo'r bo'luvchi sozanda (odatda tanburchi) asarning bosh pardasini bir necha bor sadolantirish bilan kifoyalandi.

Hajmidan qat'iy nazar muqaddima matni xayollar hisobi matniga kirmaydi.

So'ngra ashula yo'li bilan o'qila boshlanib, xat nomli tuzilmalar navbatma – navbat keladi. Birinchi xat "daromad" ma'nosi "kirish" boshlanishi yoki "sarxat" (ma'nosi boshxat) ikkinchisi "miyonxat" (ma'nosi o'rta xat ), uchinchisi "du nasr" (ma'nosi ikkinchi nasr) deb ataladi. Odatda to'rtinchisidan e'tiboran bir necha xatlarni qamrab oladi. "Avj" barpo etiladi. Unda to'rttala har xil namrut bular qatorida pari avji, turk avji kuylari ijodkorona moslashtirilgan holda yangrashi



mumkin. Yakuniy "tushurim" (yoki furovard) nomli xat bilan sho'ba shakli o'z nihoyasiga yetadi.

Yosh avlodda komil inson fazilatlarini tarkib toptirishni nazarda tutib, keyingi yillarda og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlaridan namunalar tanlab, o'quvchilarni dars va sinfdan tashqari to'garak mashgulotlarida ular bilan tanishtirishda an'anaviy usullar bilan birga yangi noan'anaviy usullardan foydalanish nazarda tutilgan. Utmishda asosan ogzaki usulda o'rganilgan, madaniy hayotda keng o'rin tutgan mumtoz musiqiy merosimiz borasida qomusiy olimlarimizdan biri Abu Nasr al-Forobiy "Kimning fe'lu atvori muvozanatini yo'kotgan bo'lsa, uni gartabga keltiradigan, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadigan va muvozanatda bo'lganlarning muvoza'iatini saqlaydigan vosita sifatida musiqa tananing sogligi uchun foydalidir", degan.

SHayx Sa'diy aytganidek, "Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir". U kishining emotsional estetik hissiyotini faol rivojlantiradi va uning axlokiy qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

1980 yilning may oyida Xiva shahrida o'tkazilgan musiqashunoslar seminarida ko'ngina o'zbek va boshqa qardosh respublikalardan kelgan musiqashunos, komgyuzitor hamda musiqa oliy o'kuv yurtlari pedagoglari ilgari "klassik", "xalq klassik", "ogzaki klassik" deb atalib kelingan maqom, mumtoz

kuy va ashula, katta ashula shuningdek dostonlarga nisbatan "ch")ogʻzaki anʻanadagi kasbiy musiqa" atamasini ishlatishga qaror qildilar.

Mazkur seminarining qaroriga binoan maorif vazirligiga maktab musiqa darslari mazmunini kasbiy musiqa janrlaridan oʻquvchilar yoshi, didi va imkoniyatlariga mos keladigan namunalar bilan boyitish gopshirilgan edi. 1982 yilda pedagogika institutlarining musiqiy pedagogika fakulʼtetlarida maqom asoslarini oʻrganish fani dasturi Qoʻshaev va R.Yu.Yunusov tomonlaridan tuzilib, nashr etildi. 1980 yillarning oxirida D.F.Omonullaev 7-sinf darsligiga SHashmaqom va uning ustozlari hakida qisqa bir mavzuni kiritdi. Shu davrdan beri musiqa oʻqituvchilari tayyorlash jarayonida kasbiy musiqa janrlarini oʻrganish va ularni maktab musiqa faoliyatiga jalb etish amaliyoti davom etib kelmoqda.

Dars mazmuniga kiritilgan murakkab anʻanaviy kasbiy musiqa janrlarini oʻrganish va oʻzlashtirishning oʻziga xos usullari (metodikasi) mavjud. Bu metodika kisman eski ustoz-shogird anʻanalariga asoslangan boʻlib, unda ustozni tinglash va kuyni yodga olish, shuningdek ashula (shoʻʻbalar)dan parchalar tinglagandan keyin ularning matni (gazallar)ni oʻrganishga harakat qilish nazarda tutilgan. Zamonaviy darslarga xos sinf jamoasi tarzida kuylash, kuylashdan oldin aytish mashklari aytib ovozni qizitish, ayrim asar yoki ulardan olingan parchalarni notaga karab solʼfedjio qilish, milliy bezaklarning (nola, kochirimlar) ijrosini asosan ogzaki tarzda ustozning ijrosi yoki

audio va video yozuvlardan foydalanib o'rganish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish kabi usullar ayni vaktda birdaniga (paralell) amalga oshiriladi.

Maqom va boshqa an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari, kuylash organlari faoliyati, mutatsiya (balog'at) davri xususiyati va ovozni asrash hamda tarbiya qilishni ham bilish zarur. SHuning uchun baland avjlari bo'lgan maqom sho'balari va mumtoz ashulalarni kuylashda asosan daromad va miyonxat tuzilmalarini parcha sifatida kuylab, tanishish tavsiya etilgan. Ayrim mohir pedagoglar shunday asarlardan ayrimlarini transpozitsiya kilib (pastrok tonallikga tushirib) kuylashni ham amalda qo'llamoqdalar.

Eng muhimi maqomga o'xshash murakkab va mukammal musiqa janrlarini o'ziga xos xususiyati, tarixi, ijro tamoyillarini o'quvchi yoshlarga tushuntirib, bunday asarlarga nisbatan qiziqish va ehtiyojni shakllantirishdir.

O'zbekiston Davlat madhiyasining muallifi, buyuk kompozitor Mutal Burxonov, musiqashunos professor Fayzulla Karomatov va boshqalar zo'r tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlarini o'rganish qadimdan ustoz-shogirdchilik yo'li bilan bolalikdan boshlangani, shogirdlarga dastlab tanbur, doira va boshqa sozlarda chalish, undan keyin ashula aytish o'rgatilganligi hakida gapirib, kasbiy musiqa janrlari bilan ganishish umumta'lim maktabining o'rta sinflaridan boshlanishi zarurligini qayd etgan edilar.

Maqom iborasi arabchadan joy, o‘rin, daraja kabi tushunchalarni anglatib, musiqada asarningbosh pardasi joyini ko‘rsatadi.

Maqomot keng ma‘nodagi turli maqomlar va ularga o‘xshash musiqiy janrlarning umumlashtirib aytilishidir. Bunda O‘zbekiston hududidagi maqom gurkumlari (Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Fargona- Toshkent maqom yo‘llari)dan tashqari Ozarbayjon mug‘omlari, Uyg‘ur muqomlari, Hind ragalari, Eron dastgoxlari va boshqa turkumli asarlar nazarda tutiladi.

Buxoro shashmaqomi va respublikamizdagi boshqa maqom ko‘rinishlari sobiq ittifok davrida norasmiy tarzda kamsitilib, ular asosan saroy musiqasi, binobarin, maqomlar saroy ahli goyalarini aks ettiradi, ularning keng mehnatkashlar ommasi bilan alokasi yo‘k degan uydirmalar tarqatilgan edi.

Ma‘lumki, oddiy xalq orasidai yetilib chikkan barcha dono hunarmand iste‘dodli shoir, musiqachi va olimlarning eng sarasi saroy xizmatiga jalb etilgan.

Saroydagi musiqachilar uyushmasida faoliyat ko‘rsatib kelgan mashhur sozanda va xonandalar el nazariga tushganlariga kadar qishloq va shahar aholisiga musiqiy xizmat ko‘rsatib, ularning ijodiy printsiplari shu oddiy xalq musiqasi asosida shakllandi. Binobarin, maqomlarni yaratishda ham ustoz

ajdodlarimiz xalq musiqasining yorqin namunalaridan unumli foydalanganlar. •

Mustaqillik sharofati bilan barcha milliy qadriyatlarimiz katorida maqomlarning ham maqomini tiklash, ularning nazariy asoslari va amaliy ijrosini keng ko‘lamda o‘rganish nazarda tutilmoqda.

Shu nuqtai nazardan yondashib maqom sho‘‘balarini yoki ulardan olingan parchalarni tinglash, ayrim namunalarni kuylash, umumta’lim maktablaridan boshlab kollejlarda, universitetlar va konservatoriyadagi o‘quv jarayonlariga kiritilgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, maqomlarni o‘rganish va o‘rgatish tizimi hozirga kadar uzil kesil shakllanib bo‘lgan emas. Agar biz bu jarayonning o‘tmishdagi tizimiga nazarimizni karatmokchi bo‘lsak, ustoz shogirdchilik an‘analari va bu an‘ananing og‘zaki tarzda amalga oshib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Hozirgi kunlarda esa bu jarayon kisman Yevropa nota tizimiga asoslanganligi ko‘zga tashlanmoqda. Bu har ikkala o‘rganish va o‘zlashtirish usulining o‘ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud.

O‘tmishdagi ustozlar o‘zlariga ma’qul bo‘lgan, ya’ni kuchli musiqiy xotiraga, ovozga va qizikishga ega bo‘lgan yoshlarni tanlab maqomlar ijrosini o‘rgatgan bo‘lsalar, hozirgi kunda ayrim o‘rta miyona musiqiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan yoshlar ham maqom musiqasi bilan shugullanmoqdalar. Bunga nota yozuvi va maqomlar ijrosi audio yozuvlari sabab bo‘lmoqda.

Maqomlardek murakkab va mukammal musiqiy janrlarni o'zlashtirish va kasb qilib olish uchun esa avvalo yetuk ustozlardan ta'lim olish va ko'shimcha vosita sifatida nota yozuvi hamda turli ijrochilarning audio yozuvlarini taqkoslab eshitishdan foydalanish zarur.

Maqomlar ijrosi bo'yicha ixtisoslashgan o'quv dargohlarida o'qiyotgan talaba yoshlar maqomlar ijrosini o'rganish uchun turli usullar (etuk maqomxon ustozlarning ijrolarini eshitish, ustozlarning ijro ko'rsatishlari, imkoni boricha takomillashgan nota yozuvlaridan foydalanish, o'z ijrosini magnit tasmaiga yozib, kaytib tinglash va shu yo'l bilan ijrosini takomillashgirishtirish va boshqa)dan foydalanadilar. Umumiy musiqiy-ta'lim va musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonida esa, asosan maqomlar xakida nazariy ma'lumotlar olish va maqomlarning ayrim yorqin namunalarini yoki ulardan olingan parchalarni kuylab o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Buning sababi shundaki, umumiy o'rta-ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan o'quvchilar maqomlarning umumiy tabiati va xususiyatlaridan xabardor bo'lib, ulardan ma'naviy ozuka (lazzat) olishlari nazarda tutiladi. Musiqiy-pedagogik oliy va o'rta-ta'lim maskanlarida ta'lim olayotgan talabalar kelajakda musiqa muallimlari bo'lib yetishishlari tufayli maqomlar va boshqa an'anaviy kasbiy musiqa janrlarini umumiy tarzda o'rganishlari va o'quvchilarga o'rgatishlari talab etiladi. SHuning uchun musiqiy-pedagogik ta'lim jarayonida asosan maktab musiqa dasturlari va

darsliklaridagi maqom namunalarini birinchi navbatda o'zlashtirib olishlariga urgu berish lozim.

Yana bir muammo mavjudki, uning yechimini topish bir muncha mushkul. Bu muammoning asosiy kelib chikish sababi bir necha o'n yillar muqaddam, turli musiqiy ta'lim dargoxlarini tugatib, hozirgi kunda o'kituvchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan ustozlarning o'sha sobik davrda maqomlarni o'rganishdan bebahra qolganliklaridir. Endi bu ustozlar anchagina yoshlari ulgayib, maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlariga xos xususiyatlar (qochirim, nola va boshqa bezaklar)ni o'zlashtirib olishga qiynaladilar. SHunga qaramasdan barcha ustozlar maqomlar ijrosini imkonlari darajasida o'rganib olishlari, bu janrlarning nazariy asoslarini bilishlari xamda o'z shogirdlariga bunday yuksak badiiy asarlarni o'rganish uchun to'g'ri tavsiyalar bera olishlari zarur.

Xullas, ustozona yoki kasbiy musiqa janrlarini yoshlarga o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish zarur deb o'ylaymiz:

- maqomlar va kasbiy musiqaning boshqa janrlari (mumtoz kuy va ashula, katta ashula, doston nomalari)ga xos nazariy ma'lumotlar va amaliy ijro xususiyatlari bilan tanishish;
- kasbiy musiqaning yetuk ijrochilari hamda ularning ijro yo'llarini gaqqoslab, tahlil qilish;
- xususan maqomlarning turkumliligi, tuzilish xususiyatlari (cholguda xona, bozgo'y, ashulada daromad, miyonxat, dunasr, namud, avj, furovard va hanglar)ni ijro davomida bir-biridan ajrata olishni

o'rgan ish;

- maqomlarning nota yozuvlarini o'rganish va notada o'z aksini topa olmagan ijrodagi nozik nuqtalarini topib, ularni jonli ijrodagi holatini ta'minlash;
- audio va video yozuvlardagi maqom numunalarini tinglash;
- maqom va boshqa kasbiy musiqa janrlaridan ayrim asarlarni muntazam ravishda yukorida ko'rsatilgan usullar asosida o'rganib borish va o'z ijrosini takomillashtirishga intilish;
- ayrim tadbir va kontsertlarda ijro chikishlarini amalga oshirish; Agar aytilgan tavsiyalar va boshqa kasbiy manbalarda berilgan maslahatlarga amal qilib, maqomlar ijrosiga sidqidildan yondashilsa, bu boradagi barcha qiyinchiliklarni yengib, maqomlardan bahramand bo'lish mumkin.

## X U L O S A

Respublikamiz mustaqillikka erishganiga qadar musiqa darslarining turli faoliyatlarga muljallangan materiali asosan rus va G'arb musiqasi namunalaridan tuzilgan edi. O'zbek kompozitorlari va bastakorlarining asarlari ko'pincha kuylash materiali sifatida tavsiya etilgan edi. Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlari deyarli maktab



musiqa faoliyatidan yetarli o'rin olmagan edi. Keyingi mustaqillik davrida milliy musiqiy merosimizni o'rganishga keng yo'l ochilib, uning eng yuksak namunalari maktab musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarda o'rganish va o'zlashtirishga katta imkoniyat yaratildi. Hozirgi kunda dasturdagi barcha asarlarni majburiy o'rganish emas, o'qituvchining xoxishi va imkoniyatlariga qarab har bir hududda ko'proq mahalliy an'analar va musiqiy yo'nalishlarga ko'proq e'tibor berilishi ham nazarda tutilgan.

Keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarda (musiqa ta'limi va tarbiyasi kontseptsiyasi, umumiy ta'lim standartlari, musiqa madaniyati fanining yangi dasturi) musiqa ta'limi va tarbiyasida o'zbek xalq musiqasi, musiqiy meros (maqomlar, maqomlar tipidagi rivojlangan mumtoz kuy va ashulalar, katta ashulalar, dostonlar va musiqiy folklor) namunalaridan keng foydalanish va shu yo'l bilan qadimiy madaniy musiqiy qadriyatlarimizni tiklash nazarda tutilgan.

Musiqa madaniyati fani yangi dasturida qisman kuylash va asosan tinglash uchun tavsiya etilgan og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa namunalari dars va sinfdan tashqari ishlarda o'rganilib, bu borada tayyorlash jarayonida turli fanlar (maqomlar asosi, o'zbek musiqasi tarixi, ashulachilik yoki ovozxonlik, dirijyorlik, asosiy va qo'shimcha musiqa asboblari, maktab musiqa repertuarini o'rganish va boshqalar) ni o'rganishdavomida ham qo'llanilmoqda.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi dasturi, shuning bilan birga shu darslarnig mazmuni va keskin o'zgardi, rus va Yevropa musiqasini

birmuncha qisqartirish yo'li bilan bir qancha milliy musiqani o'rganishga qo'l keladigan yangi fanlar kiritildi. Buning natijasida darslarning tarkibiy qismi, mavzulari va usuliyotida ham o'zgarishlar bo'ldi.

Bu o'zgarishlar bundan keyin milliy ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, qadimiy an'analarni tiklashga yo'l ochish bilan bir qatorda bir qancha muammolarni kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Masalan, endilikda hamma musiqa muallimlari milliy mumtoz, kasbiy musiqa va folklor namunalarini o'rganishlari zarur. Buning uchun avvalo musiqa darsliklari, tinglash uchun yozuvda musiqa namunalari to'plamlari va usuliyotiga oid materiallar bo'lmasa, bu murakkab musiqa namunalarini talab darajasida o'zlashtirishni ta'minlab bo'lmaydi.

Biz yuqorida qayd etib o'tgan barcha o'quv materiallari, darslik va qo'llanmalari, ko'rgazma materiallar, musiqa asboblari va boshqa o'quv jihozlari dars va umuman musiqa ta'limi va tarbiyasining samaradorligini oshirishda yarim shart-sharoit hisoblansa, qolgan yarmini o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari (o'z kasbiga ishonch va sadoqat bilan qarashi, izlanuvchan va tashabbuskorligi, topqirligi va dadilligi, o'z kasbining nazariy va uslubiy tomonlari puxta bilishi, pedagogika va psixologiyaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi tashkil etadi). O'qituvchi atrofdagi (nohiya, shaxar, viloyat) ilg'or tajribali o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishi, tajriba almashtirish, o'z maxoratini tinmay oshirishi, davriy matbuotni kuzatib borishi orqali zamonaviy talablarga javob bera oladi. U maktabda musiqa darslarini yuqori saviyada o'tkazishni ta'minlash

uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratilishi uchun harakat qilishi zarur. Maktabda maxsus musiqa xonasi (kabineti) bo'lishi, dastur, darsliklar, tavsiyanomalar, ishlanmalar, usuliy qo'llanmalar ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari, badiiy yuksak musiqa ijrolari yozuvi, maxsus nota chiziqlari chizilgan taxta (doska), milliy va umumbashariy musiqa san'ati namoyondalari portretlari va boshqa jihozlar muhayyo qilingandagina o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ayniqsa sifatli musiqa asboblaridan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda aksariyat o'quvchilarning zamonaviy estrada ijrochiligiga qiziqishlarini hisobga olib, musiqa tinglash jarayonida shu uslubda ijro etilgan mumtoz milliy musiqa namunalaridan foydalanish orqali ham dars samaradorligini ma'lum darajada oshirishga erishish mumkin.

Xullas, maktabda mumtoz musiqa janrlarini o'rganish uchun barcha imkoniyatlar yaratilayapti, o'quvchilar barcha musiqa namunalari bilan tanishib, ularni o'rganib, o'zlashtirib borsalar, ma'naviy kamolotga yetadilar deb o'ylaymiz.

1. Karimov I. A., Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1995- 278 b.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod arzusi" Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000 yil 107 bet.
3. Karimov I. A., Istiqlol va ma'naviyat. -T.: "O'zbekiston, 1994.-160 b.
4. Karimov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" -T.: O'zbekiston, 1997. 137 b.
5. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz".T., "O'zbekiston" – 2000 y. 255-bet.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston. 2001y.
7. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi T.Solomonova. T,1984-y.
8. Rajabiy Y. ,O'zbek xalq musiqasi. 5-jild. 1., 1959-y.
9. I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T.1963.y.
10. T.Ye.Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi".T.1981y.
13. A. Odilov. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi». T.; «O'qituvchi». 1995 yil.
14. H.Hamidov. « O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi». T.; «O'qituvchi». 1996 y.
15. Matyoqubov O., Maqomot. T. , «Musiqqa» nashriyoti, 2004-y.
16. Fitrat. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», T.; Fan. 1993 y.
17. Yu.Rajabiy Shashmaqom 1-P-Sh-1U-U-U1 tomlar. T.,: F.Fulom 1956-1971 yillar.
- 18.Rajabov I .Maqomlar masalasiga doir. T., 1963
19. O.Matyaqubov Og'zaki an'anadagi professional muzikaga kirish T.1983.
- 20.O.Matyaqubov Maqomot T.2004.
21. B.Matyaqubov Xorazm doston ijrochiligining zarxal sahifalari X.1999.
- 22.T.Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi T.1981.
- 23.O.Fayziyev, Ma'ruzalar matni Musiqqa tarixi,2010y,.